

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION HAMKORLIK MODELNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Mohigul Avazbek qizi
Qo'qon davlat universiteti magistranti
mohigulobitaliyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga tayyorgarlik darajasini oshirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mavjud an'anaviy yondashuvlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qiyosiy o'rganilib, Janubiy Koreya tajribasi asosida takomillashtirilgan "Oilaviy rivojlanish kundaligi" modeli ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ushbu modelning bolalarning bilish faoliyati, psixologik tayyorgarligi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Shuningdek, maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim jarayonini integratsiyalash hamda rivojlanish monitoringi tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktabga tayyorgarlik, innovatsion pedagogik model, oila va ta'lim tashkiloti hamkorligi, ta'lim texnologiyalari, pedagogik diagnostika.

ABSTRACT

This article focuses on improving the level of school readiness among preschool children through the application of contemporary pedagogical approaches. A comparative study of traditional educational methods and innovative teaching technologies was conducted, resulting in the development of the "Family Development Diary" model based on advanced South Korean educational practices. The research findings reveal that the implementation of this model positively influences children's cognitive abilities, psychological preparedness, and socio-emotional development. Furthermore, the article offers practical recommendations aimed at strengthening cooperation between families and preschool institutions, integrating educational activities, and enhancing developmental monitoring systems.

Keywords: preschool education, school readiness, innovative pedagogical model, family-institution cooperation, educational technologies, pedagogical diagnostics.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуются актуальные вопросы повышения уровня готовности детей дошкольного возраста к школьному обучению. На основе сравнительного

анализа традиционных методик и современных педагогических технологий разработана модель «Семейный дневник развития», усовершенствованная с учетом передового опыта Южной Кореи. Результаты исследования показывают, что применение данной модели способствует развитию познавательных способностей детей, повышению их психологической готовности и совершенствованию социально-эмоциональных навыков. Кроме того, представлены практические рекомендации по укреплению сотрудничества между семьей и дошкольной образовательной организацией, интеграции образовательного процесса и совершенствованию системы мониторинга развития ребенка.

Ключевые слова: дошкольное образование, готовность к школе, инновационная педагогическая модель, сотрудничество семьи и образовательной организации, образовательные технологии, педагогическая диагностика.

Kirish

Hozirgi davr ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga puxta tayyorlash eng muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon ta'lim makonida yuz berayotgan yangilanishlar hamda kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning keng joriy etilishi bolalarning faqat bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki ularning shaxsiy sifatlari, psixologik holati hamda ijtimoiy moslashuv qobiliyatlarini ham shakllantirishni talab etmoqda. Shu sababli maktabga tayyorgarlik jarayoniga kompleks yondashuvni qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta'lim amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda bolalarning maktabga tayyorlik darajasi asosan ularning intellektual rivojlanishi orqali baholanadi. Biroq psixologik tayyorgarlik, tengdoshlar bilan muloqot qilish ko'nikmalari hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki motivatsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi boshlang'ich ta'lim bosqichida turli qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu esa tayyorgarlik jarayonini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, ota-onalarni ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida jalb qilish hamda pedagoglar va oilalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshirishda innovatsion hamkorlik modelining pedagogik imkoniyatlarini o'rganish va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Ilmiy manbalarda maktabga tayyorgarlik bolalarning intellektual rivojlanishi, psixologik holati hamda ijtimoiy kompetensiyalarini qamrab oluvchi murakkab va ko'p komponentli jarayon sifatida tavsiflanadi.

So'nggi yillardagi ilmiy izlanishlarda o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish, mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish va jamoaga muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlash maktabga tayyorgarlikning muhim mezonlari sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur omillar bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba tahlili rivojlangan davlatlarda oila va ta'lim muassasasi hamkorligiga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. Xususan, Finlyandiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida ota-onalar bolaning rivojlanish jarayonida faol hamkor sifatida ishtirok etadi. Bunday yondashuv orqali bolaning individual rivojlanish dinamikasi muntazam monitoring qilinib, ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligi ta'minlanadi.

Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar bilan innovatsion shakllardagi hamkorlikni rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini yuksaltirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, u tajriba-sinov (eksperimental) metodologiya asosida tashkil etildi. Tadqiqotda kvazi-eksperimental dizayn qo'llanildi, ya'ni mavjud ta'lim guruhleri asosida nazorat va tajriba guruhleri shakllantirildi.

Tadqiqot bazasi va ishtirokchilar

Tadqiqot ikki hududdagi ta'lim muassasalarida olib borildi:

- Tajriba guruhi (TG) — Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi 14-umumta'lim maktabi negizida tashkil etilgan majburiy bir yillik tayyorlov guruhi;
- Nazorat guruhi (NG) — Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi 29-maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhi.

Tadqiqotda jami 6–7 yoshli bolalar ishtirok etdi (har bir guruhda o'rtacha 25–30 nafar bola). Guruhlar ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (yosh, jins, dastlabki tayyorgarlik darajasi) bo'yicha nisbatan tenglashtirildi.

Tadqiqot bosqichlari

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Aniqlovchi bosqich (diagnostik tahlil)

Bu bosqichda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi boshlang'ich holatda baholandi. Diagnostika kompleks yondashuv asosida quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

- psixologik tayyorgarlik (motivatsiya, emotsional barqarorlik);
- intellektual tayyorgarlik (tafakkur, diqqat, xotira);
- ijtimoiy-irodaviy tayyorgarlik (muloqot, xulq-atvor, mustaqillik).

2. Shakllantiruvchi bosqich (intervensiya)

Mazkur bosqichda tajriba guruhida innovatsion pedagogik model joriy etildi. Ushbu model quyidagilarni o'z ichiga oldi:

- “Oilaviy rivojlanish kundaligi” — ota-onalar va pedagoglar tomonidan birgalikda to'ldiriladigan monitoring vositasi;
- haftalik ota-onalar ishtiroki tizimi;
- bola rivojlanishini 5 asosiy yo'nalish bo'yicha kuzatish (fizik, ijtimoiy-hissiy, nutq, kognitiv, ijodiy).

Nazorat guruhida esa an'anaviy ta'lim metodikasi saqlab qolindi.

3. Nazorat bosqichi (yakuniy baholash)

Tajriba yakunida dastlabki diagnostika metodlari asosida qayta baholash o'tkazildi va natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari va vositalari

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

1. Psixologik diagnostika:

- motivatsion so'rovnoma (bolaning maktabga munosabatini aniqlash);
- rangli testlar (emotsional holatni baholash).

2. Intellektual diagnostika:

- “Grafik diktant” (D.B. Elkonin) — diqqat va idrokni baholash;
- “To'rtinchisi ortiqcha” testi — mantiqiy tafakkurni aniqlash.

3. Ijtimoiy-irodaviy baholash:

- vaziyatli o'yinlar (ijtimoiy xulq va muloqotni aniqlash);
- kuzatish metodi.

4. Statistika tahlil:

- foizli taqqoslash;
- dinamik o'zgarishlarni aniqlash;
- guruhlararo farqlarni solishtirish.

Baholash mezonlari

Bolalarning maktabga tayyorgarligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- yuqori daraja (mustaqil va faol bajaradi);
- o'rta daraja (qisman yordam bilan bajaradi);
- past daraja (qiyinchilik bilan bajaradi).

Natijalar. Tajriba-sinov ishlari natijalari bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar mavjudligini ko‘rsatdi. Natijalar nazorat va tajriba guruhlarida kesimida qiyosiy tahlil qilindi.

1. Psixologik tayyorgarlik natijalari

Aniqlovchi bosqichda har ikki guruhda motivatsiya darajasi o‘rtacha ko‘rsatkichda edi. Yakuniy natijalarga ko‘ra:

- Nazorat guruhi (NG): 58%
- Tajriba guruhi (TG): 75%

Tajriba guruhida bolalar maktab faoliyatiga nisbatan aniq tasavvurga ega bo‘lib, “dars”, “parta”, “o‘qituvchi” kabi tushunchalarni faol qo‘llay boshlaganlari kuzatildi. Bu esa ularning ichki o‘quv motivatsiyasi shakllanganidan dalolat beradi.

2. Intellektual tayyorgarlik natijalari

“Grafik diktant” natijalari:

- NG: 52% to‘g‘ri bajarish
- TG: 68% to‘g‘ri bajarish

“Ortiqcha predmet” testida:

- NG: mantiqiy xatolar ko‘p kuzatildi
- TG: tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalari yaxshiroq rivojlangan

Umumiy intellektual ko‘rsatkich:

- NG: 60%
- TG: 65%

Bu natijalar tajriba guruhida diqqatni jamlash va mantiqiy fikrlash yaxshilanganini ko‘rsatadi.

3. Ijtimoiy-irodaviy tayyorgarlik natijalari

Vaziyatli o‘yinlar natijasida:

- NG: 52% (tartibga rioya qilishda qiyinchiliklar)
- TG: 68% (ijtimoiy moslashuv yuqori)

Tajriba guruhidagi bolalar:

- navbat kutish,
- o‘qituvchiga murojaat qilish,
- jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni yaxshiroq egallagan.

4. Kompleks rivojlanish ko‘rsatkichlari

Keng qamrovli baholash natijalari:

5. Umumiy samaradorlik

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- tajriba guruhida umumiy rivojlanish darajasi 25–30% ga oshgan;
- eng katta o‘sish ijtimoiy-hissiy rivojlanishda kuzatildi;
- ota-onalar ishtiroki oshgani sari bolalarning natijalari ham yaxshilangan.

6. Asosiy ilmiy natijalar

Tahlillar asosida quyidagi xulosalar olindi:

- innovatsion model bolalarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi;
- ota-onalar bilan hamkorlik ta'lim samaradorligini oshiradi;
- maktab muhitiga yaqinlashgan ta'lim bolalarning moslashuvini tezlashtiradi.

Tajriba-sinov natijalari innovatsion hamkorlik modelining yuqori samaradorligini isbotlab, bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Bu esa mazkur modelni amaliyotga keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

Muhokama

Tadqiqot davomida olingan natijalar bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda faqat an'anaviy pedagogik yondashuvlarga tayanish kutilgan samarani to'liq ta'minlamasligini ko'rsatdi. Tahlillar innovatsion pedagogik modellarni qo'llash, ayniqsa ota-onalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb etish orqali bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini sezilarli ravishda oshirish mumkinligini tasdiqladi.

Tadqiqot doirasida sinovdan o'tkazilgan "Oilaviy rivojlanish kundaligi" modeli bola rivojlanishini oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida muntazam kuzatish imkonini yaratdi. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonining uzviyligini ta'minlash bilan bir qatorda, bolaning intellektual, psixologik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholashga xizmat qildi.

Shuningdek, maktab muhitida tashkil etilgan tayyorlov guruhlarining faoliyati bolalarda o'quvchi sifatidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirishga, yangi ta'lim muhitiga moslashish jarayonini yengillashtirishga hamda o'quv faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlil natijalari maktabga tayyorgarlik samaradorligini oshirishda quyidagi omillar alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi:

- integratsiyalashgan pedagogik yondashuvni qo'llash;
- oila va ta'lim muassasasi o'rtasida tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- bola rivojlanishini baholashning innovatsion monitoring mexanizmlaridan foydalanish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Ayniqsa, ota-onalar va pedagoglar hamkorligiga asoslangan model bolalarning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlab, ularning maktab muhitiga muvaffaqiyatli moslashishiga zamin yaratadi.

Tadqiqot davomida taklif etilgan “Oilaviy rivojlanish kundaligi” modeli bolaning rivojlanish dinamikasini muntazam monitoring qilish, ta’lim va tarbiya jarayonining uzviyligini ta’minlash hamda oila bilan pedagogik hamkorlikni mustahkamlashda samarali vosita sifatida namoyon bo’ldi.

Shu sababli mazkur modelni maktabgacha ta’lim amaliyotiga keng joriy etish, uning metodik ta’minotini takomillashtirish va turli hududlardagi ta’lim tashkilotlarida qo’llash bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu esa maktabgacha ta’lim sifatini oshirish va bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elkonin, D. B. (1989). *Psixologiya razvitiya rebenka*. Moskva: Pedagogika.
2. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2020). 132-son qaror.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2018). 999-son qaror.
5. OECD. (2017). *Starting Strong: Early Childhood Education and Care*. Paris.
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=TsIxbDkAAAAJ&citation_for_view=TsIxbDkAAAAJ:W7OEmFMy1HYC
7. Sultonova, Nurkhon; „Development Centers of Preschool Organizations and Children's Play Activities,"American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (29932769)",10,25,p428-431,2023,